

---

**“SITTAYI ZARURIYA” NASHRLARIDAGI MATNIY TAFOVUTLAR VA  
ULARNING BADIYATGA TA’SIRI**

**Bekova Nazzora Jo`rayevna**

*Buxoro davlat universiteti f.f.d., professor*

**Ibroimova Mahliyo**

*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Tel: + 998932213837*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Sittai zaruriya” qasidasining to`rtta nashri sinchiklab o`rganib chiqildi va nashrlardagi matniy tafovutlarning badiiyatga ta`siri o`rganildi.*

**Annotation.** *In this article, four editions of Alisher Navoi's Ode on the "Sittai zaruriya" have been carefully studied and the impact of textual differences in the editions on the art has been examined.*

**Kalit so`zlar:** *qasida, tafovut, matn, badiiy*

**Key words:** *Ode, difference, text, artistic*

**Kirish.** Ma'lumki, qasida sharq mumtoz poeziyasida asosiy o'rinni egallaydi. Qasida dastlab arab adabiyotida vujudga kelgan va o'z rivojlanish bosqichida turli maktablarga, mazmunga ega bo'lgan. Musulmon mintaqa adabiyotida Rudakiy, Nosir Xusrav, Mas'ud Sa'd Salmon., Mujiriddin Baylaqoniy, Abu Nizom Falakiy Shervoni, Sobir Termizi, Daqiqiy, Nosir Xusrav, Anvari, Xoqoni, Sanoiy, Tufayliy, Unsuriy, Farruhiy, Shayx Sa'diy, Amir Xusrav, Dehlaviy, Sakkoki, Lutfiy, Sayfi Saroyi, Gadoiy kabilar qasida janrlarini rivojlantirish va takomillashtirishga munosib hissa qo'shdilar. Bu janrning paydo bo'lishi, takomillashuvi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, formal poetik tomonlari haqida bir qancha olimlarning maqola va tadqiqotlari mavjud.<sup>1</sup>.

Qasidaga xos bo'lgan an'anaviy unsurlarga har bir so'z san'atkoring ijodiy yondashgani, unga o'zicha sayqal bergani shak-shubhadan xolidir. Mazkur fikr “Sittai zaruriya” va uning muallifiga ham tegishlidir. Alisher Navoiyning she'riy asarlari ulug' shoirlarning o'z e'tirofiga ko'ra, chinakam ma'nolar xazinasidir. Shoir durdonalarida majoziy va ilohiy ishq, falsafiy va ijtimoiy mazmun, madh va o'zini Ollohnning mislsiz qadrati oldida faqr, notavon deb bilish kabi xilma-xil jilolar doimo qorishiq holda keladi. Shuning uchun shoir asarlariga hech qachon bir tomonlama qaramasligimiz, ularni bir nuqtada turib

---

<sup>1</sup> Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика.- Тошкент: Фан, 1992, 155-бет. Анисию А. Шарқ адабиётида қасида жанри ва Бадри Чочий || Ўзбек тили ва адабиёти, - 1970, 4-сон, 22-27-бетлар.

baholamasligimiz joiz. O`zbek mumtoz adabiyotining bobokaloni Mir Alisher Navoiy fors tilida ham so`z dodini bergan mumtoz san`atkor edi. Ikki tilda barobar ijod qilib, Benazir san`at ko`rsatish va Abdurahmon Jomiy singari ustozlar tahsiniga sazovor bo`lish Navoiy nomini yana ham mahbub va ulug`vor qilgan edi. Uning “Foni” taxallusi bilan yaratgan g`azal, qasida, ruboiy va marsiyalari nafaqat badiiy so`z ustalari, shoir-u fozillar, balki tojikzabon xalq orasida ham shuhrat qozongan. Shu bois Navoiy bu she`rlarni yig`ib, “Devoni Foni” nomi bilan alohida kitob qilib tuzgan edi.

Mazkur maqolada biz “Sittayi zaruriya” qasidalarining to`rtta nashrini sinchiklab o`rganib chiqdik va ulardagи farqli o`rinlarni topishga harakat qilib ko`rdik. Mazkur nashrlarni quyida keltirib o`tamiz:

-Алишер Навоий . Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик.20-том. . -Тошкент: Фан, 2003.

- Sayfiddin Sayfulloh. A.Navoiy. Sittayi zaruriya. Fan,2008.

-<sup>1</sup> Адабий мерос. Ҳужжат ва тадқиқотлар. Тошкент: Фан, 1968, 199-282-бетлар.

- Фони Амир Алишер. Девони форси (мунтахаб). –Душанбе: Ирфон, 1993.

Biz mana shu 4 ta nashr asosida “Sittayi zaruriya” qasidalaridagi o`xshash va farqli jihatlarni o`rganib chiqdik. Dastavval, bu farqlarni jadvalga tushirishni lozim topdik. 1-jadval ( ilovaga qarang)

Qasidalardagi farqli jihatlarni izlashni debochadan boshladik.

Aynan bir matnning turli davrlarda, turli yillarda ko`chirilgan nashrlari farqlanadi. Chunki xattotlar yoki noshirlar har xil bo`ladi. “ Sittayi zaruriya”ning ham biz o`rganayotgan to`rtta nashrida farqli jihatlarni uchratish mumkin. Bu farqlarning ayrimlari asar badiiyatiga ta`sir qiladi, ma`noni o`zgartirib yuboradi. Ba`zilari esa ma`noga ta`sir qilmaydi.

Masalan,

Chu xingi **charx** barorosti zi bahri xirom,

Ba zeri zinash kashidi zi paykari javzo.

Zi bahri on ki hame kajravist shevai **charx**,

Chu **charx** rutbai xarchang soxti volo.

( *Charxning bo`z otini xirom qilish uchun yasantirganingda, egari ostida javzo ( yonmayon turgan ikki qiz) ko`rinishidan ( nusxa) chizding.*)

*Charxning hamma qilmishlari kajravlikdan iborat bo`lgani uchun ham charxday qisqichbaqa ( to`rtinchı burj) maqomini ham yuksak qilding.* ( Ruh ul quds)

Ushbu baytlarda qo`llangan **charx** so`ziga Navoiy asarlari lug`atida shunday izoh keltiriladi: 1. Gildirak; 2. Aylanish; 3. Osmon, ko`k, falak. Biz ko`rib chiqqan 3 ta nashrda bu so`z bir xil yozilgan. Faqatgina 1968-yida nashr qilingan Adabiy merosdagи arabiy matnda bu so`z **jarx** tarzida yozilgan. Albatta, jarx so`zini baytda keltirsak, ma`no`zgaradi.

**Jolason**, k-andar daruni g`uncha aftad, muddatest,

K-orzui durri farqam dar dili g`amparvar ast.

( *G`uncha ichiga tushgan shabnamdek, bir necha muddatdan beri g`amparvar ko`nglimda faqirlik durrining orzusi tushgan*) ( Tuhfat ul-afkor)

“Jolason” s`ozi Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. 20 jidlikda **Kolason** tarzida kelgan. Qolgan nashrlarda jolason tarzida keltirilgan. Qaysi bir so`z to`griligin bilish uchun esa Navoiy asarlari lug`atiga murojaat qildik. Lug`atda shunday keltirilgan: Jola- 1. Do`l; 1. Shudring, shabnam; 3. Yosh, ko`z yosh

Kola-Mol-mulk, ashyo, boylik

Bundan ko`rinib turibdiki, jolason so`zi qo`llangan nashr to`g`ri keladi. Kolason so`zi esa badiiyatga ham, ma`noga ham to`g`ri kelmaydi.

**Qasidae avval**, ki suxangazorii on mutbani bar adoi mahomidi hazrati Bori bud, tasmiayaashro “ Ruh ul-quds” nozil gasht. ( *Birinchi qasidada aytilga so`zlar Bori taolo hamida taalluqli bo`lgani uchun “ Ruh ul-quds” ( Muqaddas ruh) deb nomlandi.* ) Qadisaning debochasida keltirigan ushbu jumladagi **qasidae avval** so`zi Adabiy merosda nashr etilgan arabiylar matnda alif harfi tushirib nashr etilgan. Natijada bu so`z **qasidae val** tarzida o`qiladi va bu asar ma`nosiga ozgina bo`lsada ta`sir qiladi.

Voizu tome – gadoi non buvad, farqash hamin ast,

K-in ba zeri minbar omad, on farozi minbar ast.

( *Ta'magir voiz- non tilovchi gadoga o`xshaydi, ular o`rtasidagi farq- biri minbar ustida, boshqasi minbar ostida bo`ladi.* )

Alisher Navoiyning Mukammal asrlar to`plamining 20 tomligida birinchi baytdagi **hamin** so`zidan keyingi **ast** so`zi tushib qolgan. Qolgan nashrlarda esa **hamin ast** shaklida kelgan.

Ba jomi azhari gardun agar naku nigari

Zi bahri **qatli** tu doni, kip ur zi zahritanost. ( Qut ul-qulub)

Ba jomi azhari gardun agar naku nigari

Zi bahri **ratli** tu doni, kip ur zi zahritanost. ( Qut ul-qulub)

( *Bu ko`k falak jomiga yaxshiroq nazar solsang, senio`ldirmoq uchun unga fano zahridan to`ldiribdilar.* )

Ushbu bayt “Sittayi zaruriya”ning to`rtinchi qasidasi hisoblangan “ Qut ul-qulub” qasidasidan olingan. Bu baytdagi **qatli** so`zi Navoiy asarlarining 20 tomligida **ratli** shaklida keladi. Lug`at bilan o`rganib chiqqanimizda esa bu baytda **qatli** so`zi to`g`ri qo`llanganiga guvoh bo`lamiz.

Qasidalardagi so`zlar bilan bog`liq tafovutlarni o`rganar ekanmiz, yana bir narsaga guvoh bo`ldik. Biz o`rganayotga to`rtta nashr orasidan 1993-yilda Tojikistonda “Irfon” nashriyotida nashr etilgan matnning ba`zi o`rinlarida yillar ham keltirilgan. Lekin bu raqamlar qolgan uchta nashrda uchramaydi. Yana bir holat: arab yozuvida nashr etilgan matnlarda qasidaning nomi to`liq keltirilmagan, ammo kirill yozuvidagi nashrlarda esa to`liq keltirilgan. Yil fasllari va qasidalarning nomi to`liq yoki to`liq emasligi asar badiiyatiga ta`sir qilmaydi.

**Ma`no, vazn va badiiyat nuqtai nazaridan ba`zi so`zlar bilan bog`liq mulohazalar**

“Sittayi zaruriya” qasidalar turkumida shunday so`zlar borki, ular imloviy, ishoraviy xatoliklar tufayli ikki xillikga uchragan. Deyarli bunday so`zlar asarning badiiyatiga putur yetkazmaydi. Masalan, harflar xato terilishi mumkin, izofali birikmalarda izofa qo`yilmagan bo`lishi mumkin va h.zo kabi holatlar. Chunonchi, debocha va “Rul ul-quds”dagi shunday holatlar:

Ammo bar hasbi “Al-umuri marhunatun bi avqotih” dar ayyomi hayoti bob a-rakoti on hazratba hasabi taqdir bar on amr **majoln** mubodarat nabud. (*Ammo: “Har bir ish o`z vaqt bilan garovlangan) mazmuniga ko`ra, u hazratning barakotli tiriklik (vaqt)larida taqdir taqozosiga ko`ra u amralrni ado etishga kirishilmadi*)

Matndagi majoln so`zi faqatgina 2008-yilda “Fan” nashriyotida nashr etilgan nashrda shunday kelgan. Qolgan 3ta nashrda esa **majoli** shaklida kelgan.

Ammo bar hasbi “Al-umuri marhunatun bi avqotih” dar ayyomi hayoti bob a-rakoti on hazratba hasabi taqdir bar on amr **majoli** mubodarat nabud.

Ba nori shavqi tu bulbul shuda chu xokistar,

Valek zebi gulistonash karda **vasf ado**.

(*Sening shavqing o`tidan bulbul yonib go`yo kul bo`ldi, ammo unga gulistonning ziynati deb ta`rif berdilar*)

Navoiyning 20 tomlik asralar to`plamida **vasfi ado** so`zi izofasiz kelgan. Qolgan nashrlarda esa izofali qo`llangan.

Ba nori shavqi tu bulbul shuda chu xokistar,

Valek zebi gulistonash karda **vasfi ado**.

Dar on ajuba namudori az hama **kardiy**,

Amonatatro ham dodiyash ba rasmi xifo. (Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami.20-jild; Adabiy meros; “Irfon” nashriyotida chop etilgan nashri)

Dar on ajuba namudori az hama **karday**,

Amonatatro ham dodiyash ba rasmi xifo.(Alisher Navoiy.Sittayi zaruriya. “Fan” 2008. Sayfiddin Sayfulloh.

Namud dil zi rayohin so`i **favokih** mayl,

Chu az sarobi suvar so`i lujjai ma’no.

Namud dil zi rayohin so`i **favokeh** mayl,

Chu az sarobi suvar so`i lujjai ma’no.

(*Ko`ngil rayhonlardan mevali bog` tomonga, sarobli suratlardan ma’no qatlamiga mayl ko`rsatdi.*)

Sahobi **simfishoi** pardahoi simobi,

Chunon kashid zi davri ufuq ba ro`ihavo.

Sahobi **simfishon** pardahoi simobi,

Chunon kashid zi davri ufuq ba ro`ihavo.

(*Kumushrang bulutlar simobiy pardalarni ufq atrofidan havo yuziga qalin qilib tortdi.*)

Rasondi az aqibash **toxttozi** sarsari day,

Ki raft yak-yak az on xullaho ba bodi fano.

Rasondi az aqibash **toxtozi** sarsari day,

Ki raft yak-yak az on xullaho ba bodi fano.

( Xazon ortidan qishning sovuq va kuchli shamolini yetkazding. Gulli, nozik matoni eslatuvchi o`sha (nafis) yaproqlarni birin-ketin fano shamoli olib ketdi.)

“Ayn ulhayot” qasidasida kelgan ayrim farqli baytlar:

Qutb chun piri batamkin v-axtaru anjum samo,

Chun muridongirdi **piri poybarjo** afganand.

Qutb chun piri batamkin v-axtaru anjum samo,

Chun muridongirdi **pir poybarjo** afganand.

( Qutb yulduzi o`rtada piri komildek turar, uning atrofida axtaru yulduzlar samo qilib, muridlar kabi oyog`larine harakatlantiradilar.)

**Isianfoson** ajab nabvadki chashmi marhamat,

Gah-gahe bar holi tarsoyonи marzo afganand.

**Isoanfoson** ajab nabvadki chashmi marhamat,

Gah-gahe bar holi tarsoyonи marzo afganand.

( Iso nafaslar ba'zi-ba'zida nasroniy xasta ( betob) lar holiga marhamat ko'zi bilan boqsalar ajab emas.)

**Ba'd az on** amvot jon yoband, agar obi dahan

Bar faromushtagoni xoki g`abro afganand.

**Ba'dazon** amvot jon yoband, agar obi dahan

Bar faromushtagoni xoki g`abro afganand.

( So`ngra ularning og`iz suvini yer ostida unutilgan jasadlarning xoklariga surtsalar, ular qayta tiriladilar.)

“Tuhfat ul-afor” da kelgan ayrim farqli o`rinlar:

**Bo** dahoni xushku chashmi tar qanoat kun az-k,

“Har ki **qon shud** ba xushku tar shahi bahru bar ast”.

**Ba** dahoni xushku chashmi tar qanoat kun az-k,

“Har ki **qone' shud** ba xushku tar shahi bahru bar ast”.

( Qurigan og`iz va namli ko`zga qanoat qil, ho`l-u quruqqa qanoat qilgan quruqlik va dengiz podshohidir.)

Fiqhro chun illati makru hiyal sazad **faqeh**,

Ne **faqeh** ast on, ki harfi illati fiqh andar ast.

Fiqhro chun illati makru hiyal sazad **faqih**,

Ne **faqih** ast on, ki harfi illati fiqh andar ast.

( Faqih ( shariat olimi) fiqh ( shariat ilmi)ni makr-hiyila quroli qilib olsa, u faqih emas, fiqh kasaliga mubtalo bo`lgan kishidir.)

Gunbadi axzar, ki xunrezist korash, dur nest,

Bargi **hino** axzar omad, lek rangash ahmar ast.

Gunbadi axzar, ki xunrezist korash, dur nest,

Bargi **hinno** axzar omad, lek rangash ahmar ast.

( Ko`k gumbazning ishi qon to`kishdan iboratdir, hinoning ham bargi ko`ku ammo rangi qizildir.)

“Qut ul-qulub” da kelgan ayrim o`zgarishga uchragan so`zlar:  
Chi **marhala-st**, kipo nanhodabahri shadan,  
Zi bomi marhala ko`sí rahilro g`avg`ost.  
Chi **marhalaast**, kipo nanhodabahri shadan,  
Zi bomi marhala ko`sí rahilro g`avg`ost.  
( Bu qanday yo`ldirki, unga qadam bosmasdanoq, tomidan ko`chib ketish uchun nog`ora ovozi chalinadi.)

Nishoni on ki **sabehoni** pokoraz shud,  
Asiri xorii osorash az guli humrost.  
Nishoni on ki **sabihoni** pokoraz shud,  
Asiri xorii osorash az guli humrost.  
( Toza ruxsor may ichuvchilarning xorbo`lganlik alomati- qizil gulga asir bo`lib qolganliklaridir.)

Agarchi nest zi sargashtagi ba parvona,  
Ba g`ayri so`zu gudoze, ki **volavu** shaydost.  
Agarchi nest zi sargashtagi ba parvona,  
Ba g`ayri so`zu gudoze, ki **volau** shaydost.  
( Parvonaning ishi ham ovoragarchilik, volayu shaydo bo`lib,kuyib-yonishdan boshqa chorasi yo`q.)

Ba farqi sad Zakariyo agarchi arra kashand,  
Ba maxlasash chu dihi yak diram, ba **jonam** azost.  
Ba farqi sad Zakariyo agarchi arra kashand,  
Ba maxlasash chu dihi yak diram, ba **jonat** azost.  
(Yuzta Zakariyo boshiga arra tortsalar-u, xalos qilish uchun bir diram bersang ham aza tutasan.)

“Minhoj un-najot”dan:  
Chi islom ast in, k-az **shustiash** kuffor agar xandal,  
Bar o` shoyad, ki oxir sharm bodat z-in musulmoni.  
Chi islom ast in, k-az **sustiash** kuffor agar xandal,  
Bar o` shoyad, ki oxir sharm bodat z-in musulmoni.  
( Bu qanday islom bo`ldiki, uning sustligidan kofirlar kulib tursa. Bunday musulmonlikdan kishi uyatda qolsa ajab emas.)

Ba yodat n-oyad, ar oyad, kuniz- on son, ki dar burden,  
Bi so`zonad malakro bolu par az parti **nironi**.  
Ba yodat n-oyad, ar oyad, kuniz- on son, ki dar burden,  
Bi so`zonad malakro bolu par az parti **niyroni**.  
( (Ularni) ado etish yodingga kelmaydi. Ado etmoqchi bo`lsang ham shunday qilasanki, nayranglerning o`ti farishtalarning qanotini kuydirib yuboradi.)

Shavi otash, ki sad sol ar majusash ravshani baxshad,  
Chu yak dam dar vay aftad, zoyeash **sozad** zi **nironi**.  
Shavi otash, ki sad sol ar majusash ravshani baxshad,

Chu yak dam dar vay aftad, zoyeash **sozat** zi **niyroni**.

( Sen o't bo`lsangu, majusiy senga yuz yil yorug`lik bag`ishlagan bo`lsa ham uni bir damda kuydirib yuborasan.)

Zi nafsam gar xato omad, vale az bimi koram bud,

Zi afg`on otash afro`zi, zi mijg`on **ashk** g`altoni

Zi nafsam gar xato omad, vale az bimi koram bud,

Zi afg`on otash afro`zi, zi mijg`on **ashki** g`altoni

( Nafsim tufayli xato qilganimda ishim qo`rquvdan o't soluvchi fig`on chekish, kipriklarimdan yosh to`kish bo`ldi.)

Mazkur baytda ashk so`zi izofali qo`llanish yoki qo`llanmasligi bo`yicha o`zgarishga uchragan. Mazkur o`zgarish asar mazmuniga deyarli ta`sir qilmaydi.

Gahi **kishvarsitoy** gavhari durji Umarshayxi,

Dami sohibqironi axtari avji Temurxon.

Gahi **kishvariston** gavhari durji Umarshayxi,

Dami sohibqironi axtari avji Temurxon.

( Dam Umarshayx gavhar sandig`ining egasi, dam Temurxon yulduzi avjining baxtiyor kishisidir.)

“Nasim ul-xuld” dan:

Ba farroshii o` xas ro`fta az dam Isii Maryam.

Ba darboni ba kaf karda aso **Musii** Imronash.

Ba farroshii o` xas ro`fta az dam Isii Maryam.

Ba darboni ba kaf karda aso **Musoi** Imronash.

( Maryamning o`g`li Iso o`zining o`liklarni tiriltiruvchi nafasi bilan o`sha yerning xascho`plarini supurib yuradi. Imronning o`g`li Muso qo`lidagi hassasi bilan o`sha bog`eshigida soqchilik qiladi.)

V-az in ganji Kayoni kamtarin gavhar bad-on **qimat**,

Ki gar g`oib shavad mulki Jamu Kay, nest tovonash.

V-az in ganji Kayoni kamtarin gavhar bad-on **qiymat**,

Ki gar g`oib shavad mulki Jamu Kay, nest tovonash.

( Bu Kayoniy xazinasidagi har bir gavhar shu darajada qimmatga loyiqliki, agar uyo`qolsa, Jamshid-u Kayxusrav mulki xarj qilinganda ham qoplab bo`lmaydi.)

**Maseho** subhi fitrat fayzyob az posi anfosash,

**Xizir** dar shomi zulmat jur`ano`sh az obi hayvonash.

**Masiho** subhi fitrat fayzyob az posi anfosash,

**Xizr** dar shomi zulmat jur`ano`sh az obi hayvonash.

( Masiho ( Iso) azal subhida uning muhofiz nafasidan fayz topgan. Xizr esa, zulmat kechasida uning tiriklik suvidan ichgan.)

Ushbu baytda biz imloviy xatolikka duch kelamiz. To`g`ri, ko`plichik Xizr so`zini Xizir shaklida yozadi. Ammo badiiy va ilmiy asarlarda, qo`yingki barcha nashrlarda biz so`zlarni to`g`ri ishlatsishimiz kerak. Demak, Xizr so`zida faqat bitta i harfi bo`ladi. Bu kabi xatoliklar barcha asarlarda uchraganidek, qasidalarning ham bir nechta o`rnida kuzatiladi.

**Xulosa.** Qasidalarda, shunday qilib, O`rta asrlar Musulmon sharqi erishgan falsafiy, irfoniy, ilohiy tushunchalar, Qur`on hikmati va hadislar mazmuni chuqur aks etgan. Navoiy buning ustiga, fors tilidagi juda qadimiy nodir so`zlar, turli ilmlarga oid islohlarni qo`llaydi. O`quvchi bu islohlarning o`zinigina emas, shu islohlilar bilan tuzilgan so`z o`yinlari, badiiy san`atlarni ham bemalol ilg`ab olsa, shoir mahoratining naqadar baland ekaniga guvoh bo`ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ислом ақоидига доир жавоҳир сўзлар. –Тошкент : Мовароуннахр, 2002, 118 б.
2. Исҳоков Ё. Навоий поэтикаси. -Тошкент: Фан, 1983, 167 с.
3. Исҳоков Ё. Навоий лирикасида руҳий тасвир ва таҳлил. // "Ўзбек тили ва адабиёти", 1991, 4-сон, 15-20-б.
4. Кароматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. -Тошкент: Фан, 1993, 95 б.
5. Кароматов Ҳ. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабийтарихий таҳлил): филол.фан.д-ри дис. автореф. -Тошкент, 1993, 50 б.
6. Комилов Н. Тасаввуф. I китоб. -Тошкент: Ёзувчи, 1996, 272б. 113
7. Комилов Н. Тасаввуф. II китоб. -Тошкент: "Адабиёт ва санъат" ҳамда "Ўзбекистон", 1999. 204 б.
8. Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб. -Тошкент: Маънавият, 2001. 94 б.
9. Комилов Н. Ҳар байти ҳикматли бир китоб// Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2001, 9 февраль.